Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике.....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Абдор Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби кизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	



O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulkakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish	1458
Mavlanov G'olib	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari	1464
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich	
Метод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной компетенции студентов высшей школы	1470
Моховов Дмитрий Анатольевич	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari	1476
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yullari	1481
Abdusalomov Olimjon Eshmirzayevich	



MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI VA INSTITUTLARI

Askarov Zoxidjon Sadikjanovich

Yuridik fanlar falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishda ishtirok etuvchi xalqaro huquqiy baza va institutlar muhokama qilinadi. Muallif mehnat migratsiyasi bilan bog'liq xalqaro huquqning asosiy me'yoriy hujjatlarini, shuningdek, ushbu kontekstda turli xalqaro institutlarning rolini ko'rib chiqadi. Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish bo'yicha davlatlar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Ishda mehnat migratsiyasini tartibga solishning xalqaro tizimidagi mavjud kamchiliklarga umumiy nuqtayi nazar kiritilgan va ularni yaxshilashning mumkin bo'lgan yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya jarayonlari, mehnat migranti, halqaro migratsiya tashkiloti, migratsiya siyosati, integratsiya jarayonlari, noqonuniy migratsiya.

Abstract: This article examines the international legal framework and institutions involved in regulating labor migration processes. The author examines the main normative acts of international law relating to labor migration, and also examines the role of various international institutions in this context. The mechanisms of cooperation between states and organizations for the effective management of migration processes are analyzed. The work includes an overview of existing shortcomings in the international system for regulating labor migration and suggests possible ways to improve them.

Key words: migration processes, labor migrants, International Organization for Migration, migration policy, integration processes, illegal migration.

Аннотация: В данной статье рассматриваются международно-правовая основа и институты, занимающиеся регулированием процессов трудовой миграции. Автор исследует основные нормативные акты международного права, касающиеся трудовой миграции, а также рассматривает роль различных международных институтов в этом контексте. Анализируются механизмы сотрудничества государств и организаций для эффективного управления миграционными процессами. Работа включает в себя обзор существующих недостатков в международной системе регулирования трудовой миграции и предлагает возможные пути их улучшения.

Ключевые слова: миграционные процессы, трудовые мигранты, Международная организация миграции, миграционная политика, интеграционные процессы, нелегальная миграция.

KIRISH

“Bugungi kunda migratsiyaning oshishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi iqlim va haroratning keskin o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi va qishloq xo'jaligi unumdorligining pasayishi kabi omillar bilan bog'liq”¹. Hozirgi kunda dunyoda migrantlar bilan bog'liq muammolarning siyosiylashuvi, ular bilan bog'liq muammolar, ushbu davlatlarda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan migrantlar hisobiga ishsizlik darajasining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'layotgani, o'z jamiyatidan uzoqlashishi makon va zamon nuqtayi nazaridan shaxsni mutlaqo o'zgarishi, hatto o'z jamiyati uchun begonalashuviga olib kelishi mumkinligi, boshqa tomondan, o'z jamiyatining qadriyatlarini, an'analarini, tilini saqlab qolishga urinish va harakatlar u borgan joydagi jamiyat uchun begonaligi, ushbu aksioma jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni vujudga keltirmokda². Shuning uchun ushbu masalalar halqaro huquq diqqat markazida turadi.

BMT Kotibiyatining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'ylab migrantlar soni taxminan 281 million kishini tashkil qiladi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda migratsiya,

1 Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T., “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 443.

2 Muydinov D.N. Hozirgi zamon migratsion jarayonlarning jamiyat barqarorligiga ta'siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 14.



jumladan, jo'nab ketish mamlakati va boradigan mamlakatlardagi siyosiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli tobora murakkablashdi³. Shularni hisobga olgan holda, hukumatlararo konferensiyada "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha Global shartnoma" qabul qilindi va u keyinchalik BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil dekabrda 73/195-sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlandi. Global shartnoma xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya uchun hamkorlik asosini belgilaydi. Jumladan, u 10 ta asosiy yo'nalish tamoyillari, tegishli harakatlar bilan bog'liq 23 ta maqsad va ularni amalga oshirish, kuzatish va ko'rib chiqish jarayonlarini hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, hisobotda qayd etilishicha, "migratsiya tizimlari qachonki yaxshilab o'ylab ishlab chiqilsa hamda yangi dinamika, ehtiyojlar va voqeiklarga moslashtirilgan holda tartibga solinsagina samarali ishlaydi"⁴.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S. Kastelsning hisoblashicha uzoq muddatli istiqbolda transmilliy mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlik, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik strategiyasining muhim yo'nalishi hisoblanadi, chunki ular iqtisodiy tabaqalanishning global tizimini yaratishdan manfaatdordir⁵. Yana bir tadqiqotchi Ye. Ostergaard-Nilsen migratsiya siyosatining ikki turi: qabul qiluvchi davlatning migratsiya siyosati va jo'natuvchi davlatning migratsiya siyosati haqida yozadi⁶.

D. N. Muydinovning fikricha, "migratsiya jarayoni insonlarning hududiy harakatlari natijasida yuzaga keladigan, "jo'natuvchi" va "qabul qiluvchi" jamiyatning barcha sohalarida rivojlanish dinamikasini belgilaydigan ikkiyoqlama xususiyatga ega siyosiy jarayonning bir qismidir"⁷. Har qanday holatda ham har bir davlat bu muammoga duch keladi va uni boshqa davlatlar bilan hamkorlikda hal qilishga majbur.

Mehnat migratsiyasi kabi hodisa davlatlardan uni tartibga solish choralarini ko'rishni talab qiladi va bundan nafaqat donor (yuboruvchi) davlatlar, balki retsiyent (qabul qiluvchi) davlatlar ham manfaatdor. Shuning uchun biz A.Yastrebovaning "migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solish majmuaviy harakterga ega bo'lib, u qabul qiluvchi (bizning kursivimiz – Z.A.) davlatlar hududida amalga oshirilishi lozim, chunki bu holat ularni tartibga solishning milliy qonunchilik bazasi bilan uyg'unligini oldindan belgilab beradi"⁸, – degan fikriga qo'shil-maymiz. Birinchidan, "xalqaro huquqiy tartibga solish" atamasining o'zi obyekt sifatida nafaqat bitta - mezbon - davlat, balki ikki (yoki bir nechta) davlatlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni anglatadi. Ikkinchidan, ko'pgina xalqaro shartnomalarning mazmuni shuni ko'rsatadiki, ularning predmeti bir davlat emas, balki barcha imzolagan mamlakatlar hududida yuzaga keladigan turli xil huquqiy munosabatlardir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar nuqtayi nazaridan xalqaro mehnat migratsiyasi milliy mehnat bozorlaridagi keskinlikni pasaytirish, yuqori ishsizlik darajasini pasaytirish va daromad manbalarini kengaytirish vositasi bo'lib hisoblanadi. Ularning yondashuviga ko'ra xalqaro mehnat migratsiyasi aholining qisqarishi, aholining qarishi va ishchi kuchi yetishmasligi kabi demografik muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shunday qilib, mazkur jarayonlar e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan mexanizm yoki tizimga aylandi⁹.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro mehnat migratsiyasi xalqaro mehnat huquqi institutlaridan biri sifatida xalqaro huquqning umumiy tamoyillari bilan tartibga solinadi. Ushbu tamoyillarni o'z ichiga olgan hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi: BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Davlatlarning do'stona munosabatlariga oid 1970-yildagi xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya, 1975-yil YEXHTning yakuniy akti. Ushbu universal xalqaro-huquqiy hujjatlarning tamoyillari va qoidalari Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), shuningdek, boshqa tashkilotlarning bir qator konvensiyalari va tavsiyalarida aniqlashtirilgan.

3 Qarang: World Migration Report 2022 // URL: <https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022-interactive/>. – murojaat sanasi 02.03.2023.

4 Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции. Доклад Генерального секретаря ООН на Семьдесят пятая сессия Генеральной Ассамблеи ООН. // A/75/542 Distr.: General 26 October 2020. / https://migrationnetwork.un.org/sites/default/files/docs/russian_0.pdf. – murojaat sanasi 02.03.2023

5 Castles S. The Factors That Make and Unmake Migration Policies // International Migration Review. – 2004. Vol. 38, № 3, Conceptual and Methodological Developments in the Study of International Migration. – P. 872-873.

6 Ostergaard-Nilsen E. The Politics of Migrants' Transnational Political Practices // International Migration Review. – 2003. Vol. 37, № 3, Transnational Migration: International Perspectives. – P. 760.

7 ta'siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 15.

8 Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации // дисс. доктора юрид. наук. – Москва, 2019. – С. 13.

9 Kadirova Z.A. Managing uzbek labor migration. // International Journal of integrated education. – Vol. 3 No. 1 (2020): IJIE. Indonesia. IF.5.08. – URL: <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/21>. – murojaat sanasi 02.03.2022



Natijada zamonaviy dunyoda ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnoma va bitimlarni o'z ichiga olgan mehnat migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga solish tizimi shakllandi. Ular turli nomlarga ega bo'lishi mumkin: "konvensiya", "kelishuv", "shartnoma", "pakt", "nizom", "deklaratsiya", lekin ularning mohiyati xalqaro xarakterga ega ekanligidadir.

Mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan xalqaro hujjatlar qatoriga BMTning "Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyasi, "Mehnat migrantlari to'g'risida"gi 97-sonli XMT konvensiyasi, "Migratsiya sohasidagi suiiste'molliklar va teng imkoniyatlar va murojaatlarni ta'minlash to'g'risida"gi 143-sonli XMT Konvensiyasi kiradi. BMTning qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi, XMT, Migratsiya siyosatini rivojlantirish xalqaro markazi kabi xalqaro tashkilotlar migratsiya sohasida faoliyat olib boradi.

MDH doirasida imzolangan hujjatlarda mehnat migratsiyasi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ular orasida mehnat migrantlarining asosiy huquqlari va davlatlar o'rtasidagi bu boradagi hamkorlik yo'nalishlarini belgilab beruvchi "Mehnat migratsiyasi va mehnatkash migrantlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma ham bor. Mazkur shartnomaga ko'ra, mehnat migranti bo'lib – jo'nab ketayotgan davlat hududida doimiy yashovchi hamda yetib boruvchi davlatda qonuniy ravishda haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs hisoblanadi¹⁰.

Yagona migratsiya makonini, fuqarolarning erkin harakatlanishi va umumiy mehnat bozori tamoyillarini belgilab bergan "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning kelishilgan migratsiya siyosati to'g'risidagi deklaratsiya"ni¹¹ ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning mehnatkash migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqiy maqomi to'g'risidagi konvensiya"¹² katta ahamiyatga ega. MDH doirasida davlatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tizimi ham mavjud.

MDHga a'zo davlatlar migratsiya organlari rahbarlarining faoliyat ko'rsatayotgan Kengashi migratsiya organlarining quyidagi masalalar bo'yicha hamkorligini ta'minlaydi: kelishilgan migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish; mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish (migratsiya oqimlarining hajmi, yo'nalishlari va tarkibi); umumiy mehnat bozorini shakllantirish, ishchi kuchining erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratish; migrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash va qabul qiluvchi davlat qonunchiligi, tili va madaniyatiga hurmatli munosabatni shakllantirish; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash; pasport va viza hujjatlarining himoyasi va ishonchligini ta'minlash.

"Mehnatkash migrant" tushunchasi xalqaro tashkilotlarning bir qancha hujjatlarida mustahkamlangan. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 143-sonli "Migratsiya sohasidagi suiiste'mol qilish va mehnat migrantlari uchun imkoniyat va muomala tengligi to'g'risida"gi Konvensiyasining 11-moddasida "mehnat migranti" atamasi har qanday turdagi ishga joylashish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tuvchi, o'z mablag'lari hisobiga ishlamaydigan va mamlakatga mehnat migranti sifatida qonuniy ravishda kirgan har qanday shaxsni o'z ichiga oladi¹³.

Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 86-sonli tavsiyanomasining 1-moddasiga muvofiq, "mehnat migranti" atamasi "o'z mablag'lari hisobidan tashqari, mehnat qilish maqsadida, bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tuvchi shaxs" degan ma'noni anglatadi, mazkur atama "qonuniy ravishda mehnat migranti sifatida qabul qilingan har qanday shaxsга nisbatan qo'llaniladi"¹⁴.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi"ning 1-moddasiga muvofiq, "mehnatkash migrant" atamasi "u fuqarosi bo'lmagan mamlakatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan, amalga oshirilayotgan yoki shug'ullangan shaxsni anglatadi"¹⁵. Ushbu konvensiya mehnat migrantlarini bir necha toifalarga ajratish imkonini beruvchi bir qator ta'riflarni beradi:

- "chegara ishchisi", ya'ni qo'shni davlatda doimiy yashash joyini saqlab qolgan, odatda har kuni yoki kamida haftasiga bir marta u yerga qaytib keladigan migrant;

10 Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов: Москва, 15.04.1994 г. // URL: <http://docs.pravo.ru/document/view/18494294/>. – мурожаат санаси 02.03.2022

11 Декларация о согласованной миграционной политике государств – участников Содружества Независимых Государств // URL: <http://cis.minsk.by/reestr2/doc/2289#text>. – мурожаат санаси 02.03.2022

12 Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов и членов их семей государств – участников Содружества Независимых Государств от 14.11.2008 года. // URL: <http://www.cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/text?doc=2554>. – мурожаат санаси 02.03.2022

13 Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. II. 1957–1990. – С.1783.

14 Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. I. 1919–1956. – С.982

15 Международная Конвенция о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей (принята резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных наций № 45/158 от 18 декабря 1990 года // URL: <http://constitution.garant.ru/act/right/megdunar/2561306/>. – мурожаат санаси 02.03.2022



- “mavsumiy ishchi”, ya’ni ishi tabiatan mavsumiy sharoitga bog’liq bo’lgan va faqat yilning bir qismida bajariladigan ishchi migrantga nisbatan qo’llaniladi;
 - “ish faoliyati ko’chib yurish bilan bog’liq bo’lgan ishchi”, ya’ni odatda bir davlatda istiqomat qilgan holda, o’z ishining tabiati bo’yicha boshqa davlat yoki davlatlarga qisqa muddatga ko’chib o’tishga majbur bo’lgan migrant;
 - “loyihadagi ishchi”, ya’ni ishlayotgan davlatga faqat ish beruvchining shu davlatida amalga oshirilgan muayyan loyihada ishlash uchun belgilangan muddatga qabul qilingan migrant;
 - “maqsadli bandlik ishchisi”, ya’ni maqsadli ishga qabul qilingan migrant:
- a) ish beruvchi tomonidan muayyan funksiyalar yoki majburiyatlarni bajarish uchun cheklangan va belgilangan muddatga ishga joylashuvchi davlatga yuborilgan;
 - b) cheklangan va ma’lum vaqt davomida kasbiy, tijorat, texnik yoki boshqa maxsus ko’nikmalarni talab qiladigan ishlarni bajaradigan;
 - d) ish beruvchining iltimosiga ko’ra, ish beruvchi davlatda cheklangan va ma’lum vaqt davomida vaqtinchalik yoki qisqa muddatli ishlarni bajaradigan va shu yilning oxirida, agarda ushbu aniq funksiyalar yoki majburiyatlarni endi bajarmasa yoki ushbu ish bilan shug’ullanmasa, undan oldinroq davlatni tark etishi kerak bo’lgan shaxs;
- “o’z-o’zini ish bilan ta’minlovchi (o’z-o’zini banl qilgan) ishchi”, ya’ni mehnat shartnomasi bo’yicha ishlashdan tashqari haq to’lanadigan faoliyat bilan shug’ullanadigan va bunday faoliyat orqali o’z hayotini ta’minlaydigan, odatda, mustaqil ravishda yoki o’z oila a’zolari bilan birgalikda ishlaydigan migrant, shuningdek, ish beruvchi davlatning amaldagi qonunchiligiga yoki ikki yoki ko’p tomonlama shartnomalarga muvofiq o’zini o’zi band qilgan ishchi deb e’tirof etilgan boshqa har qanday migrant.

Shuningdek, “Mehnat migrantlarining huquqiy maqomi to’g’risidagi Yevropa Konvensiyasi”da, “mehnatkash migrant” bir ahdlashuvchi taraf tomonidan o’z hududida haq to’lanadigan ishlarni bajarish uchun yashashga ruxsat berilgan, boshqa ahdlashuvchi tomon fuqarosini anglatuvchi ta’rif mustahkamlangan¹⁶.

Migrantlarning huquqiy maqomini aniqlash muammosi hozirda ham olimlar, ham amaliyotchilar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Munozaralar, birinchi navbatda, migrantlarning muayyan toifasining huquqiy maqomining o’ziga xos mazmuni to’g’risida olib boriladi. Afsuski, mehnat migrantlarining huquqiy maqomida aholining boshqa toifalariga nisbatan qanday xususiyatlari borligi haqida haligacha kelishuv mavjud emas, bu esa ularni alohida huquqiy maqomga ajratish zarurligi haqida gapirish imkonini beradi.

XULOSA

Ko’rinib turibdiki, boshqa davlatda mehnat faoliyati bilan shug’ullanadigan shaxsning migratsiya harakati uning o’z mamlakatida mavjud bo’lgan huquqiy maqomining o’zgarishiga olib keladi va bu uning maqomining muhim belgisidir. “Migrantning maxsus huquqiy maqomi migrantlarning (qochoq, ichki ko’chirilgan shaxs, chet ellik ishchi va boshqalar) tur farqiga bog’liq bo’ladi va qo’shimcha huquq va majburiyatlardan iborat bo’ladi¹⁷”. Mehnat migrantlari o’zlari fuqarosi bo’lgan davlat hududidan tashqarida bo’lgan holda, bir tomondan, qoida tariqasida, fuqarolik holatiga nisbatan huquq va majburiyatlarini saqlab qoladilar, ikkinchi tomondan, ular qo’shimcha qabul qiluvchi davlatning mehnat migrantlariga aylanish majburiyatlari bilan bog’liq ravishda ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo’ladilar.

Ko’rib chiqilgan ta’riflarni tahlil qilish asosida mehnat migrantlarining huquqiy holatining xalqaro huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan ikkita muhim xususiyatini ajratib ko’rsatish mumkin. Birinchidan, mehnat migranti maqomi nafaqat ishlaydigan fuqarolarga, balki endigina ishga kirishayotgan shaxslarga ham taalluqlidir, ikkinchidan, noqonuniy migrantlar ham mehnat migrantlari sifatida tasniflanishi mumkin, chunki ta’rifda bu shaxslar toifasiga faqat qonuniy ravishda mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslar kiritilishi mumkin ekanligini ko’rsatmaydi.

16 Қаранг: Европейская Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов (заключена в г. Страсбург 24 ноября 1977 года) // URL: // <http://hrlibrary.umn.edu/euro/Rets93.html>. – мурожаат санаси 02.03.2022

17 Хабриева Т.Я. Миграционное право как структурное образование российского права // Журнал российского права. – 2007. № 11. – С. 15.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T., "Ozbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 443.
2. Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции. Доклад Генерального секретаря ООН на Семьдесят пятая сессия Генеральной Ассамблеи ООН. // A/75/542 Distr.: General 26 October 2020. / https://migrationnetwork.un.org/sites/default/files/docs/russian_0.pdf. – мурожаат санаси 02.03.2023
3. Декларация о согласованной миграционной политике государств – участников Содружества Независимых Государств // URL: <http://cis.minsk.by/reestr2/doc/2289#text>. – мурожаат санаси 02.03.2022
4. Европейская Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов (заключена в г. Страсбург 24 ноября 1977 года) // URL: // <http://hrlibrary.umn.edu/euro/Rets93.html>. – мурожаат санаси 02.03.2022
5. Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов и членов их семей государств - участников Содружества Независимых Государств от 14.11.2008 года.// URL: <http://www.cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/text?doc=2554>. – мурожаат санаси 02.03.2022
6. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. II. 1957–1990. – С.1783.
7. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда – Женева: Международное бюро труда, 1991. – Т. I. 1919–1956.- С.982
8. Международная Конвенция о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей (принята резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных наций № 45/158 от 18 декабря 1990 года // URL: <http://constitution.garant.ru/act/right/megdunar/2561306/>. – мурожаат санаси 02.03.2022
9. Muydinov D.N. Hozirgi zamon migratsion jarayonlarning jamiyat barqarorligiga ta'siri (Germaniya federativ respublikasi misolida): siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati/ – T., 2019. – B. 14.
10. Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов: Москва, 15. 04.1994 г.// URL: <http://docs.pravo.ru/document/view/18494294/>. – мурожаат санаси 02.03.2022
11. Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации // дисс. доктора юрид. наук. – Москва, 2019. – С. 13.
12. Хабриева Т.Я. Миграционное право как структурное образование российского права // Журнал российского права. – 2007. № 11. - С. 15.
13. Castles S. The Factors That Make and Unmake Migration Policies // International Migration Review. – 2004. Vol. 38, № 3, Conceptual and Methodological Developments in the Study of International Migration. – P. 872-873.
14. Kadirova Z.A. Managing uzbek labor migration. // International Journal of integrated education. – Vol. 3 No. 1 (2020): IJIE. Indonesia.IF.5.08. – URL: <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/21>. – мурожаат санаси 02.03.2022
15. Ostergaard-Nielsen E. The Politics of Migrants' Transnational Political Practices // International Migration Review. – 2003. Vol. 37, № 3, Transnational Migration: International Perspectives.– P. 760.
16. World Migartion Report 2022 // URL: <https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022-interactive/>. – мурожаат санаси 02.03.2023

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.